

Qodirova Zulayxo
TDSHU TIF va turizm kafedrası mudiri
Gaziyeva Sulxiya
TDSHU doktoranti

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O`ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI TARTIBGA SOLISH

Annotatsiya: Migratsiya oqimlarini tartibga solishni takomillashtirishga qaratilgan davlat siyosati sifatida migratsiyani raqamlashtirish jarayonlari koʻrib chiqilmoqda. Oʻzbekistonda va xalqaro miqyosda migratsiyani raqamlashtirish imkoniyatlari, ushbu jarayonning ijobiy tomonlarini va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun raqamli texnologiyalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan asosiy xavf va tahdidlar maqolada koʻrsatilgan. Hozirgi kunda mamlakatimizda migratsiya jarayonlarini tartibga solishda raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurati mavjud.

Ushbu maqolada jahonda mehnat migratsiyasini tartibga solish va uni Oʻzbekistonda amalga oshirish masalalari tadqiq etilgan. Dunyo tobora raqamli texnologiyalarga tayanib borayotganligi sababli, raqamlashtirish mehnat migratsiyasini tartibga solish va himoya mexanizmlarida ham muhim rol oʻynashi mumkin.

Kalit soʻzlar: Xalqaro mehnat migratsiyasi, Xalqaro migratsiya tashkiloti, tartibga solish, raqamlashtirish, mehnat, migratsiya, raqamli texnologiyalar, Oʻzbekiston.

Аннотация: Процесс цифровизации миграции рассматривается как государственная политика, направленная на совершенствование регулирования миграционных потоков. В статье освещаются возможности цифровизации миграции в Узбекистане и за рубежом, преимущества этого процесса, а также основные риски и угрозы при внедрении цифровых технологий для принятия управленческих решений. Сегодня существует необходимость внедрения цифровых технологий в регулирование миграционных процессов в нашей стране.

В данной статье рассматривается регулирование трудовой миграции в мире и его реализация в Узбекистане. Поскольку мир все больше полагается на цифровые технологии, цифровизация также может играть важную роль в регулировании и защите трудовой миграции.

Ключевые слова: Международная трудовая миграция, Международная организация миграции, регулирование, цифровизация, труд, миграция, цифровые технологии, Узбекистан.

Annotation: The process of digitization of migration is considered as a state policy aimed at improving the regulation of migration flows. The article highlights the opportunities for digitalization of migration in Uzbekistan and internationally, the benefits of this process and the main risks and threats in the implementation of digital

technologies for management decision-making. Today, there is a need to introduce digital technologies in the regulation of migration processes in our country.

This article examines the regulation of labor migration in the world and its implementation in Uzbekistan. As the world increasingly relies on digital technologies, digitalization can also play an important role in regulating and protecting labor migration

Keywords: International labor migration, International organization of migration, regulation, digitization, labor, migration, digital technologies, Uzbekistan.

KIRISH

Mehnat migratsiyasi bu- shaxslarning bir davlatdan boshqa davlatga yoki oʻzi rezident hisoblangan davlat hududida ishga joylashish maqsadida koʻchishi. Ishchi kuchi migratsiyasi koʻpgina davlatlar tomonidan ularning migratsiyaga oid meʼyoriy-huquqiy hujjatlari orqali tartibga solinadi. Bundan tashqari, baʼzi davlatlar tashqi migratsiyani nazorat qilish doirasida chet ellarda oʻz rezidentlari uchun imkoniyatlar yaratish bilan faol shugʻullanishadi.[1] Texnologiyalar hal qila olmaydigan kundalik duch kelayotgan eng qiyin hayotiy tajribalardan biri boʻlib qolayotgan raqamlashtirish davrida axborot-kommunikatsiya imkoniyatlaridan global darajada foydalanish tobora kengayib borayapti va bu oʻz oʻrnida turli xil migratsiyaning yoʻnalish va harakatlarini oʻzgartirmoqda. Ushbu oʻzgarish ikki xil. U davlat organlari tomonidan yuqoridan pastga qarab davlat chegaralarini nazorat qilish, kuzatuv va migratsiyani boshqarish boʻyicha raqamli texnologiyalarga tobora ortib borayotgan ishonchni oʻz ichiga oladi. Ikkinchidan, aqlli telefonlar, ijtimoiy media platformalari va ilovalari migrantlar tomonidan maʼlumot, resurs va yangiliklardan foydalanish uchun yangi kanal sifatida foydalaniladi. AKTning tarqalishi bilan birgalikda roʻy berayotgan migratsiyadagi jadal oʻzgarishlar nazariy, uslubiy va axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, raqamli migratsiya tadqiqotlarining yangi paydo boʻlayotgan tadqiqot yoʻnalishidagi metodologik muammolarga alohida eʼtibor qaratish lozim. Migratsiya va AKT tobora bir-biriga taʼsir qilmoqda. Xalqaro migrantlar soni 2020-yil oxiriga kelib 281 millionni tashkil qilgan boʻlsa, 2019-yilda 278 mln kishi xalqaro migrant boʻlgan. Pandemiya sharoitida xalqaro miqyosda migrantlar koʻplab muammolarga duch keldilar. Bu oʻz oʻrnida migratsiya jarayonlarini tartibga solinishi hozirgi kunda dolzarbligini keltirib chiqaradi.

Ushbu tadqiqot doirasida yangi raqamli texnologiyalar asosida xalqaro migratsiyani tartibga solish, jumladan oʻqitish va nazorat qilish, xavfsiz ish jarayoni kabi masalalar taklif qilingan. Mustaqil oʻzgaruvchi sifatida migratsiya jarayonini tartibga solish darajasi va unga bogʻliq oʻzgaruvchi sifatida ushbu jarayonni tarkibiy va tashkiliy boshqarish koʻrib chiqilishi mumkin.

TADQIQOTNI AMALGA OSHIRISHDA FOYDALANILGAN USULLAR

Ushbu maqolada xalqaro migratsiya jarayonlarini tartibga solishning kontseptual va tarkibiy yondashuvi bilan sifatli tadqiqot metodologiyasi qoʻllanilgan. Asosiy maʼlumotlar toʻplami sifatida Sciencedirect, Xalqaro mehnat tashkiloti hisobotlari,

Xalqaro migratsiya agentligi, rasmiy veb-saytlar va zamonaviy xalqaro migratsiya tendentsiyalari toʻgʻrisidagi maʼlumotlari oʻrganildi.

OLINGAN NATIJALAR

Raqamlashtirish sharoitida migratsiyani tartibga solish platformalari rasmiy ishga joylashish jarayonlari natijasida kelib chiqadigan xarajatlar va vaqtni kamaytirishga yordam beradi, aynan mana shular koʻplab erkak va ayollarni norasmiy, hujjatsiz va xavfli kanallar orqali migratsiya qilishiga majbur qiladi. Hukumatlar, ishchilar va ish beruvchilar, tashkilotlar va boshqa manfaatdor tomonlar oʻzlarining mehnat migratsiyasi dasturlari, tizimlari va boshqaruvida raqamli texnologiyalardan foydalanmoqdalar. Fuqarolik jamiyati tashkilotlari va boshqa xususiy va jamoat tashkilotlari mehnat migrantlariga turli xil yordam xizmatlarini taklif etadigan raqamli platformalarni ishlab chiqmoqdalar.

Migratsiyani tartibga solish oson ish emas. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy ishonch yoki jamoatchilik fikrini oʻrganish soʻrovlari kunlik maʼlumotlar asosida yigʻiladi, biroq buni migratsiya statistikasiga qoʻllab boʻlmaydi. Bu holatda aholini roʻyhatga olish, aholi registrlari va vaqti-vaqti bilan maxsus tadqiqotlar natijasida olingan maʼlumotlar koʻpincha eskirgan boʻladi va mamlakatlar boʻyicha mos kelmaydi. Muammo shundaki, maʼlumotlarning yetishmasligi siyosatchilarga migratsiya oqimlarini boshqarish uchun oʻz vaqtida va izchil strategiyalarni ishlab chiqishga imkon bermaydi.

Shu sababli tadqiqotchilar ijtimoiy tarmoqlarga foydalanuvchi yaratgan katta hajmdagi maʼlumotlardan soʻnggi migratsiya tendensiyalarini kuzatish vositasi sifatida murojaat qilishmoqda. Soʻnggi yillarda ushbu metodologiyaga bagʻishlangan koʻplab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Soʻnggi maʼlumotlardan biri 2020-yilda BMT huzuridagi Xalqaro migratsiya tashkiloti tomonidan nashr qilingan hisobotda xalqaro migratsiyani tartibga solish boʻyicha alohida taklif va tavsiyalar ichlab chiqilgan. [2]

Texnologiyalar mehnat migratsiyasini yanada xavfsiz, samaraliroq va oshkora qilish uchun katta imkoniyat yaratadi, raqamlashtirish esa, har qanday vosita kabi, xavflarni, qiyinchiliklarni va texnologik yutuqlarning teng taqsimlanmasligini oʻz ichiga oladi. Migrant ayollar va erkaklar uchun munosib mehnatni va yaxshi sharoitlarni taʼminlash uchun, u xavflarni va kutilmagan salbiy taʼsirlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi, qoʻllanilishi va maqsadli ishlatilishi kerak.

Migratsiya azaldan insoniyat hayotining ajralmas qismi boʻlib kelgan boʻlsa-da, sifat va miqyos jihatdan zamonaviy migratsion jarayonlar umuman boshqa fenomen. Mazkur fenomen koʻp hollarda, mehnatga yaroqli aholining bir joydan boshqa joyga koʻchib oʻtishi bilan, shuningdek, tobora oshib borayotgan pul oʻtkazmalari bilan xarakterlanadi. Hozirgi paytda, xalqaro migrantlar soni borgan sari koʻpaymoqda. Xususan, bu koʻrsatkich 2000-yilda 173 mln, 2010-yilda 220 mln kishini tashkil qilgan boʻlsa, 2020-yilda 281 millionga yetdi. Solishtirish uchun 2000, 2010 va 2020 yillarda yer yuzi aholisining mos ravishda 2,82%, 3,16% va 3,42%i migratsiya qarori qabul qilgan. Qochoqlarni hisobga olmaganda (2019-yil holatiga – 28 mln), ularning aksariyati ish sharoitlarini yaxshilashni maqsad qilgan ishchi kuchidan iborat boʻlib, 30% dan koʻprogʻi rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlarga

yo’nalgan. 1970-2020 yillardagi xalqaro migrantlar haqida ma’lumot 1-jadvalda berilgan.

E’tiborlisi, migrantlarning ham mutlaq soni, ham jahon aholisidagi ulushi borgan sari oshib bormoqda.

Umuman olganda, ko’pchilik olimlarning fikricha, hozirgi paytdagi migratsion jarayonlarni hisobga olsak, dunyo katta o’zgarishlar arafasida turibdi. Oldin ta’kidlab o’tganimizdek, migratsiya o’zi bilan tarkibiy demografik, ijtimoiy-siyosiy va madaniy o’zgarishlarni olib keladi. Bugungi kunda birinchidan, migratsiya ko’lami kengayib ketgan bo’lsa, ikkinchidan, ushbu jarayonning qabul qiluvchi davlatlarga ta’siri borgan sari kuchaymoqda. Ma’lum bir paytlarda, hatto madaniyatlar to’qnashuvini ham kuzatishga majbur bo’layapmiz. Yevropadagi migratsiya inqirozi bunga yaqqol misol bo’ladi.

1-jadval.

1970-2020-yillardagi xalqaro migrantlar soni

Yil	Migrantlar soni	Jahon aholisidan % hisobda
1970	84 460 125	2.3%
1975	90 368 010	2.2%
1980	101 983 149	2.3%
1985	113 206 691	2.3%
1990	152 563 212	2.9%
1995	160 801 752	2.8%
2000	172 703 309	2.8%
2005	191 269 100	2.9%
2010	221 714 243	3.2%
2015	243 700 236	3.3%
2020	281 000 000	3.6%

Manba: International Organization for Migration (2020). *World Migration Report 2020*.
https://publications.iom.int/system/files/pdf/wmr_2020_en.pdf dan olindi.

Shu bilan birga, ta’kidlab o’tish kerakki, kelajakda Yaqin Sharq emas, balki Afrika migratsion jarayonlardagi asosiy aktorga aylanadi. Yaqin 20-30 yil ichida migratsion oqimning asosiy ulushi aynan Afrikadan kelishi kutilmoqda. Asosiy qabul qiluvchi mintaqa esa, albatta Yevropa. Ma’lumotlarga ko’ra, Yevropa aholisi 30-40 yildan keyin umuman boshqa etnomadaniy tarkibga ega bo’ladi. Hozirgi paytdayoq mazkur holatning ilk va undan keyingi belgilari ko’rmoqdamiz. Masalan, Yevropadagi musulmon jamoalar keskin ko’paymoqda. Ayni damda mazkur ko’rsatkich 3-4% tashkil etayotgan bo’lsa, 2050 yilga borib 15%ga oshishi prognoz qilingan.

BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar boshqarmasi (UN DESA) ma’lumotlariga ko’ra, samarali siyosat bilan qo’llab-quvvatlangan migratsiya ham qabul qiluvchi davlatda, ham yuboruvchi davlatda inklyuziv va barqaror iqtisodiy o’sishga olib keladi. 2020-yilda jahon bo’yicha migrantlarning pul o’tkazmalari 2019-yilga nisbatan 20% ga kamayib 110 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. Bu pandemiya COVID 19 sharoti bilan bog’liq bo’ldi. Shunday bo’lsa ham, o’tkazmalarning haqiqiy qiymatining yanada yuqoriroq bo’lishi tasdiqlangan, chunki rasmiy va norasmiy kanallar orqali o’tadigan hisobga olinmagan o’tkazmalar hajmi ham juda baland.

Davlatlar darajasida sonlarga murojaat qilsak, jami migrantlarning yarmi bor-yoʻgʻi 10 ta mamlakatda istiqomat qiladi: AQSh (51 mln), Germaniya (13 mln), Saudiya Arabistoni (13 mln), Rossiya (12 mln), Buyuk Britaniya (10 mln), BAA (9 mln), Frantsiya, Kanada, Avstraliya (har biri 8 mln) va Italiya (6 mln). Boshqa tomondan, dunyodagi eng koʻp migrantlar diasporasini Hindiston (18 mln), Meksika (12 mln), Xitoy (11 mln), Rossiya (10 mln) va Suriya (8 mln) kabi davlatlar shakllantirgan.

Migratsiyani gender tarkibi boʻyicha koʻradigan boʻlsak, 2019 yilda ayollar erkaklardan kichik miqdorga ortda. 2000 yilda ayol migrantlarning jami migrantlardagi ulushi 49% boʻlgan boʻlsa, bu koʻrsatkich 2019 yilga kelib, 48%ga tushgan.

Migratsiya jarayonini yosh tarkibi boʻyicha oʻrganganimizda, har yetti migrantdan bittasi (2019 yil, 14% yoki 38 mln) 20 yoshdan kichik ekanligini koʻrishimiz mumkin.

Yana shuni alohida taʼkidlash kerakki, migrantlarning 74%i mehnat yoshida (20-64 yosh) [3].

Migrant hujjatlari (shu jumladan shartnomalar) saqlanadigan onlayn-omborxonalar, ijtimoiy yordam jamgʻarmasi badallarini olish uchun arizalarni qabul qilish va onlayn shikoyatlarni qabul qilish mexanizmlari migrantlarga oʻzlarini himoya qilish yoki ular paydo boʻlganda muammolarni boshqa yoʻl bilan hal etish uchun vaqt va pulni tejashga imkon beradi. Bundan tashqari, ishga joylash va maʼmuriy jarayonlarni raqamlashtirish migratsiya davrining barcha bosqichlarida shaffoflik va hisobdorlikni oshiradi. Raqamli platformalar shartnomalar yoki “raqamli iz” larni qayd etishda foydali ekanligi isbotlandi. Bu, ayniqsa, mehnat migrantlari, ishga yollovchilar va ish beruvchilar ishonishi mumkin boʻlgan dalillarni taqdim etish orqali shartnomani almashtirish yoki toʻlovlarni toʻlash kabi muammolarni hal qilishda juda foydali boʻlishi mumkin [4].

AKT rivojlanishi indeksi boʻyicha Oʻzbekiston 170 dan ortiq davlat ichida 103-oʻrinni egallab turibdi, masalan, Misrdan oldinda, ammo Turkiya va Braziliyadan keyin. [5]

Oʻtgan yilning oktyabr oyidan boshlab xorijda mehnat migratsiyasida boʻlgan oʻzbekistonliklarga yordam beradigan yangi tizim ishga tushirildi. Tizimda roʻyxatdan oʻtgan mehnat muhojirlari chet elda qiyin vaziyatga tushib qolgan va yordamga muhtoj boʻlganlar Mehnat-migratsiya dasturi orqali yordam soʻrab agentlik bilan bogʻlanishlari mumkin.

2-jadval.

Migratsiyani tartibga solish boʻyicha kelishuvlar va yirik jarayonlar

Yil	Kelishuvlar
1919	Xalqaro mehnat tashkiloti
1949	XMTning 97-son “Ishlash maqsadida migratsiya” konvensiyasi
1950	Qochoqlar boʻyicha BMT Oliy komissari boshqarmasi
1951	Xalqaro migratsiya tashkiloti
1975	XMTning 143-son “Migrant ishchilar” konvensiyasi
1990	Barcha migrant ishchilar va ularning oilalari huquqlarini himoya qilish boʻyicha xalqaro konvensiya

1993	Inson huquqlari bo'yicha BMT Oliy komissari boshqarmasi
1994	Aholi va rivojlanish bo'yicha Qohira konferentsiyasi
2000	Migrantlarni quruqlik, dengiz va havo yo'llari orqali noqonuniy olib kirishga qarshi BMT protokoli
2003-2005	Xalqaro migratsiya bo'yicha global komissiya
2006	Global migratsiya guruhi
2007	Migratsiya va rivojlanish bo'yicha ilk yillik forum
2009	BMT Taraqqiyot dasturining Inson taraqqiyoti va ko'chish bo'yicha hisoboti
2013	Migratsiya va rivojlanish bo'yicha BMTning ikkinchi yuqori darajadagi dialogi
2016	Qochoqlar va migrantlar bo'yicha BMT sammiti
2018	Migratsiya bo'yicha global Kelishuv
2018	Qochoqlar masalasi bo'yicha global Kelishuv

Haqiqatda, migratsiya butun jahonda tarkibiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Shu sababli, migratsiya menejmenti va migratsiyani boshqarish masalalari hozirda kun tartibida asosiy o'rin tutadi. Migratsiyani boshqarish bo'yicha hozirgi kungacha bir qator jiddiy kelishuvlarga erishilgan. Mazkur kelishuvlarning eng asosiylari 2-jadvalda o'z aksini topgan.

Oxirgi yillarda, jahonda migratsion jarayonlarni tartibga solish bo'yicha bir jiddiy qadamlar tashlandi. Shulardan eng asosiysi – Migratsiya bo'yicha global Kelishuv (GCM – Global Compact for Safe, Orderly and Regular Migration), 2018-yil 19-dekabrda BMT General Assambleyasida tasdiqlandi. Bu Kelishuv 2030-yilga mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlarining 10.7 maqsadi – xavfsiz, tartibli va odatiy migratsiyani ta'minlashda xalqaro hamkorlik – bilan hamohangdir.

Migratsiya bo'yicha global kelishuvdan ko'zlangan asosiy maqsad:

- xalqaro migratsiyani boshqarishda xalqaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlash;
- xalqaro migratsiya bilan bog'liq eng dolzarb muammolarni hal qilishda mamlakatlar o'zlarining migratsion siyosatlarini ishlab chiqishi uchun keng imkoniyatlar yaratish;
- mamlakatlarning o'z tajribalari va amaliyotlaridan kelib chiqib, ularga o'z siyosatlarini tadbiiq etishlari uchun imkoniyat yaratish kabilardir.

Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, kelishuv davlatlarning xalqaro huquq normalari doirasida mustaqil migratsion siyosat yuritish bo'yicha suveren huquqini to'liq kafolatlaydi [6].

Raqamlashtirish, shuningdek, ish bilan ta'minlashda sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Endilikda malakali kasblarni dunyo miqyosida ham ancha osonroq topish mumkin bo'lib, bu ish o'rinlari vaqtinchalik va tabiatiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. shchilar raqamli iqtisodiyotda istalgan vaqtda va istalgan joydan ishtirok etishlari mumkin.

Migratsiya O'zbekiston iqtisodiy kelajagining muhim tarkibiy qismidir, chunki undan past malakali va yuqori malakali ish o'rinlaridagi bo'shliqlarni to'ldirish uchun allaqachon foydalanib kelinmoqda. Raqamlashtirish ikkalasiga ham ta'sir qiladi. Migratsiya uzoq vaqtdan beri odamlarning bir joydan ikkinchi joyga jismoniy harakati sifatida qaralsa-da, biz hozirda virtual mehnat migratsiyasining bir shakliga guvoh

bo'lmoqdamiz. Ish onlayn sarmoya, ishchi kuchi va axborot oqimi orqali milliy chegaralarni kesib o'tmoqda. [7,8]

Harakatchanlikning kuchayish (virtual va jismoniy) tendensiyasi siyosatchilar uchun hal qiluvchi omil bo'lishi kerak. Agar mehnat safarlari qisqa va tez-tez bo'lib tursa, viza olishga ketadigan vaqt undan ko'ra uzoqroq davom etmasligi kerak. Agar bo'lg'usi ishchilar yollanma ishchi bo'lmasa yoki bir nechta joyda ishlasa, u holda bir ish beruvchiga bog'lab qo'yilgan vizaga ega bo'lish yoki Ish sharoitlari o'zgargani sari, mehnatni o'zgartirishdagi muammolar ishchi kuchi harakatchanligi uchun istalmagan to'siqlarni keltirib chiqaradi. Xodimning ilgari ishlagan ko'plab ish joylarini hujjatlashtirish uchun ham hujjatlar qayta ko'rib chiqilishi kerak bo'lishi mumkin. Agar o'z-o'zini ish bilan band qilgan tadbirkorlar yangi iqtisodiyotning asosiy qismiga aylanib qolsa, ular siyosat nuqtai nazaridan qanday yondashadilar? Hukumat asosan ish beruvchilarning ma'lumotlariga tayanadi va ularga qanday ko'nikmalar talab qilinishini tushuntirishda yordam beradi.

Kimlar kim tomonidan yollanayotgani va qiymat qayerda yaratilayotgani kabi malaka bo'yicha bo'shliqlar to'g'risidagi holatlar ish beruvchilar, ta'lim va migratsiya toifalari bo'yicha samarali siyosatni ta'minlash uchun juda muhimdir. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, «Internet» va texnologiyaga asoslangan xizmatlar qiymatining aniq o'lchovi hali ham mavjud emas. Raqamli tovarlarning noyob tabiati ularni kuzatib borishni qiyinlashtirmoqda. Yangi tendentsiyalarni nazorat qilish va kuzatib borish uchun vositalarni yaratish ustida kimlar ishlamoqda? Raqamli asrda qanday ma'lumotlarni to'plashimiz haqida yetarlicha o'ylayapmizmi?

To'rtinchi sanoat inqilobi bizning hayotimizni qay darajada o'zgartirishi to'g'risida turli xil fikrlar mavjud. Biroq bu kelajakni bashorat qilish haqida emas. Gap ertangi kunga tayyor bo'lish uchun bugungi taxminlarni tekshirish haqida ketmoqda. Kelajak uchun xos bo'lgan murakkablik va noaniqliklarni hisobga olgan holda, bitta strategiyani tanlash va uning ishlashini kutib o'tirish mantiqqa ziddir. Hukumat doimiy tajriba, o'qitish va moslashtirishga imkon beradigan echimlar portfelini amalga oshirib borishi kerak. Noaniqlikni tan olish va tajribalar portfelini yaratish biror bir strategik yo'nalish yo'qligini anglatmaydi. Bu real vaqt rejimidagi fikrlarga asoslanib, o'zi uchun o'rganishi mumkin bo'lgan tizimni yaratishni anglatadi. Muvaffaqiyatsizliklar bir necha oylar davomida emas, balki o'nlab yillar davomida ro'y berishi mumkin, ammo bizda ko'plab muaamolarni hal qilish va tezkor o'rganish imkoniyatlari bor.

Yagona ma'lumotlar bazasi 2019-yil avgust oyida chet elda vaqtincha mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi mamlakat fuqarolarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish to'g'risida farmonni imzolagan O'zbekiston Prezidentining tashabbusi bilan yaratildi. Ushbu hujjat Yagona milliy mehnat tizimi ma'lumot tizimida tashqi mehnat migratsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan Mehnat-migratsiya dasturiy ta'minotini ishga tushirishni ko'zda tutadi [9].

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisning Senatiga va Qonunchilik palatasiga qilgan murojaatida 2020-yilni «Ilm-fan, ta'lim va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» deb e'lon qildi. Markazning ochilishi davlatimiz rahbari tomonidan ushbu sohada ilgari surilgan ulkan maqsadlarga erishish yo'lidagi yana bir qadamdir.

TAHLILLAR

- 2004-yilda Xalqaro migrasiya tashkiloti tomonidan DTM (Displacement tracking matrix) - migrantlar yoʻnalishini aniqlash loyiha dasturi ishga tushirildi. Hozirga qadar ushbu programma bizga qoʻshni boʻlgan mamlakatlarda, yaʼni Rossiya, Qozogʻiston, Qirgʻiziston va Tojikistonda faol ishlamoqda. Ushbu dasturni Oʻzbekistonda ham ishga tushirish;

- 2020-yilda respublikamizda Labormigrantuz mobil ilovasi yaratildi va ushbu ilova orqali migrantlarni qayerda ekanliklarini aniqlash mumkin;

- Maʼlumotlarni boshqarish bazasida mehnat shartnomalari, toʻlov hujjatlari yoki tibbiy maʼlumotnomalar kabi muhim hujjatlarni migrant ishchilarning shaxsiy profillarida saqlash uchun «raqamli iz» deb nomlangan yozuvni yaratish;

- Mehnat migrantlariga shaxsiy profillarini tekshirish, hujjatlarni rasmiylashtirish va onlayn xizmatlardan foydalanish uchun maʼlumotlar bazasi bilan birgalikda “yagona oyna” xizmat koʻrsatish markazlari, ilovalar va elektron kartalarni yaratish;

- Platformalar xususiy kompaniyalar yoki davlat subʼektlari tomonidan ishlab chiqilgan va boshqarilayotganidan qatʼi nazar, mehnat migrantlarining shaxsiy hayoti va onlayn xavfsizligini himoya qilish maqsadida maʼlumotlarni yigʻish, foydalanish va almashishni tartibga solish va nazorat qilish;

- Raqamli xizmatlarni ishlab chiqish va undan foydalanish bilan bogʻliq harajatlarni mehnat migrantlari qoplamasligini taʼminlash;

- Raqamli vositalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish uchun mehnat migratsiyasi boshqaruvida band boʻlganlarning salohiyatini oshirish;

- Operativ muvofiqlashtirish va muammolarni hal qilish uchun Oʻzbekistonda umumiy axborot tizimlaridan foydalanishni kuchaytirish, masalan: shikoyatlarni hal qilishni tizimini kuchaytirish;

- Migrant ishchilarni boshqarishda hukumatlar va kasaba uyushmalarini qoʻllab-quvvatlash uchun fuqarolik jamiyati tashkilotlarining rolini kuchaytirish.

NATIJARLAR INTERPRETATSIYASI

Migratsiyaning texnologiyaga asoslangan harakatchanlik siyosati asosiy imkoniyatlar va manfaatlarga kelsak, ular quyidagicha boʻlishi mumkin:

1. Xalqaro migratsiyani tartibga solish;
2. Raqamli boshqaruv tizimlari: samaradorlik va oshkoralikni oshirish;
3. Ishga qabul qilish platformalari: xarajatlarni kamaytirish, hisobdorlikni oshirish;
4. Xabar almashish ilovalari va ijtimoiy media: Axborot almashinuvi, muloqot va xizmatlarni yaxshilash;
5. Mobil toʻlov tizimlari: pul oʻtkazmalari va moliyaviy xizmatlar bilan bogʻliq xarajatlarni hal qilish;
6. Mehnatni nazorat qilish va hisobot berish uchun raqamli vositalar: Muvofiqlikni yaxshilash.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

- Mamlakatlarda ishga qabul qilish va joylashtirish bilan bog’liq ma’muriy jarayonlarni yengillashtirish uchun ma’lumotlar bazasini yaratishga rag’batlantirish;
- Ma’lumotlar bazasida mehnat shartnomalari, to’lov hujjatlari yoki tibbiy ma’lumotnomalar kabi muhim hujjatlarni saqlanishi uchun imkoniyat yaratish;
- Mehnat muhojirlarining shaxsiy profillarini tekshirishlari uchun ma’lumotlar bazasi bilan birgalikda universal «yagona oyna» xizmat ko’rsatish markazlari, ilovalar va elektron kartalarni yaratish;
- Bunday platformalar xususiy kompaniyalar yoki davlat sub’ektlari tomonidan ishlab chiqilgan va boshqarilayotganidan qat’i nazar, mehnat migrantlarining shaxsiy hayoti va onlayn xavfsizligini himoya qilish maqsadida ma’lumotlarni yig’ish, ulardan foydalanish va almashishni tartibga solish va nazorat qilish;
- Raqamli xizmatlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish bilan bog’liq harajatlarni mehnat migrantlari qoplamasligini ta’minlash.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, raqamlashtirish sharoitida alohida davlatlar o’zlarining migratsiya dasturlarini samarali ilgari surishda buni «yakka o’zi» amalga oshirolmaydilar. Mamlakatda alohida ma’lumotlarga ega milliy migratsiya rejimini ishlab chiqish bo’yicha hatti-harakatlar dalillarga asoslangan migratsiya siyosatini ishlab chiqish uchun sog’liqni saqlash to’g’risidagi ma’lumotlarni o’z ichiga olishi kerak. Bu migrantlarning sog’lig’idagi tendentsiyalarni tahlil qilish, sog’liqni saqlash to’g’risidagi ma’lumotlarni ajratish va olingan saboqlarni almashish uchun axborot tizimlarini kuchaytirish uchun global miqyosda tadqiqot mutaxassislari, olimlar va siyosatchilarni bog’lash uchun amaliy platformalardan boshlanishi mumkin.

Bir necha yillardan so’ng, O’zbekiston xalqaro miqyosda mehnat migratsiyasini tartibga solish muammolari va harakatchanligini oldini olish uchun o’z platformasini taqdim etadi. Raqamli texnologiyalar dunyo mamlakatlari jamiyatlariga migrantlarning ulkan hissa qo’shishlarida yuzaga keladigan katta muammolar va to’siqlarni yengib chiqishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

[1] Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM). <https://www.iom.int/key-migration-terms#Migration> dan 14.05.2019 da olindi.

[2] International Organization for Migration (2020). *World Migration Report 2020*. https://publications.iom.int/system/files/pdf/final-wmr_2020-ru.pdf

[3] The number of international migrants reaches 272 million, continuing an upward trend in all world regions, says UN. (2019 йил 17 сентябрь). <https://www.un.org/development/desa/en/news/population/international-migrant-stock-2019.html>

[4] <https://www.mwji.org/highlights/2018/11/report-transformative-technology-for-migrant-workers>

[5] <https://kommersant.uz/цифровая-экономика-Узбекистана/>

[6] United Nations. (13 July 2018). Global Compact for Safe, Orderly and Regular Migration - Intergovernmentally Negotiated and Agreed Outcome. 05.12.2018

[7] <https://stat.uz/en/181-ofytsyalnaia-statystyka-en/6384-labor-market>

[8] <https://ilabour.oii.ox.ac.uk/online-labour-index/>

[9] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 20.08.2019 yildagi «Chet elda vaqtincha ishlash bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori.